

Andijon viloyat adliya boshqarmasida korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni ko‘rib chiqish natijalari haqidagi yillik hisoboti:

Andijon viloyat adliya boshqarmasi va uning tizimida faoliyat yurituvchi xodimlarga nisbatan 2025-yil davomida korrupsiya faktlariga doir murojaatlar kelib tushmaganligi ma‘lum qilinadi.

Korrupsiyaviy omillarni minimallashtirish choralari.

Andijon viloyat adliya boshqarmasi tomonidan korrupsiyaviy holatlarni oldini olish va kamaytirish borasida bir qator ishlar amalga oshirib kelingan.

Jumladan, tuman (shahar) adliya bo‘limlari, Yuridik xizmat ko‘rsatish markazlari, Davlat xizmatlari markazlari hamda FHDY bo‘limlariga sirli mijoz va reydtadbirlari doimiy ravishda o‘tkazib kelinmoqda.

Shuningdek, tizimda ishlab kelayotgan barcha xodimlardan korrupsiyaviy xatti-harakatlar sodir etmasligi, bu kabi holatlarga duch kelgan taqdirda zudlik bilan boshqarmani xabardor qilishi yuzasidan tilxatlar olingan.

Shu bilan birga, korrupsiyaviy risk mavjud deb baholangan lavozimlarda ishlab kelayotgan xodimlar bilan muntazam ravishda profilaktik suhbatlar o‘tkazib kelinmoqda.

M.Odiljonov

**Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat
bo‘yicha bosh maslahatchi**